

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**“ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA
MADANIYATLARARO
MUNOSABATLAR UYG'UNLIGI
VA TARAQQIYOT
TENDENSIYALARI”**

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MAQOLALAR TO'Plami

2025-yil 27-may

BUXORO – 2025

TASHKILIY QO‘MITA

Sh.N. Murodov	– BDPI ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, rais.
G.R. Akramova	– Ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy innovatsiyalar va pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari doktori, professor, rais o‘rinbosari.
N.Dj.Yadgarov	– Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a‘zo.
G.T. Boymurodova	– Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a‘zo.
B.Q. Xodjayev	– Pedagogika kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari nomzodi, a‘zo.
B.J. Umarov	– Pedagogika kafedrası professori, Pedagogika fanlari nomzodi, a‘zo.
Z.B. Jalilov	– Pedagogika kafedrası dotsenti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, p.f.f.d (PhD), a‘zo.
Q.F. Abdullayev	– Umumiy pedagogika kafedrası dotsenti, a‘zo.
J.T. Karimov	– Umumiy pedagogika kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo

Manzil:

Buxoro davlat pedagogika instituti – Piridastgir ko‘chasi, 2-uy.

Ish tili: o‘zbek, rus, ingliz

Anjumaning boshlanishi – 22-may 2025-yil, soat 10⁰⁰, BuxDPI majlislar zali.

Reglament:

Yalpi majlisdagi ma‘ruzalar uchun - 20 daqiqa

Seksiya yig‘ilishlaridagi chiqishlar uchun - 10 daqiqa

Munozara uchun - 5 daqiqa.

Bog‘lanish uchun ma‘lumot: Tel.: +998 99 484 00 76

+998 99 757 14 41

DASTURIY QO‘MITA

1. B.B.Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor, rais;
2. Sh.N.Murodov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fizika-matematika bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, rais o'rinbosari;
3. M.M.Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
4. G.R.Akramova - Ilmiy-tadqiqotlar, ilmiy innovatsiyalar va pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, Pedagogika fanlari doktori (DSc), a'zo;
5. N.Dj.Yadgarov – Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo;
6. G.T.Boymurodova – Umumiy pedagogika kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, a'zo;
7. B.Q.Xodjayev – Umumiy pedagogika kafedrasini dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, a'zo;
8. B.J.Umarov – Umumiy pedagogika kafedrasini professori, pedagogika fanlari nomzodi, a'zo;
9. Z.B.Jalilov – Umumiy pedagogika kafedrasini dotsenti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori p.f.f.d (PhD), a'zo;
10. Q.F.Abdullayev – Umumiy pedagogika kafedrasini dotsenti, a'zo.

topqirlik kabi xislatlarni tarbiyalashda beqiyos o'rin tutadi. Milliy o'yinlar vositasida ona tilining leksik va frazeologik boyligini egallash, nutqiy madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari ham kengayadi.

Ingliz va o'zbek milliy o'yinlari o'zining boy tarixi va madaniy xususiyatlariga ega. Ingliz o'yinlari ko'pincha raqobat, strategiya va tezkorlikka asoslangan bo'lsa, o'zbek milliy o'yinlari jamoaviylik, chaqqonlik, topqirlik va an'anaviy qadriyatlarni aks ettiradi [5,6]. Masalan, inglizlarning "Simon Says" o'yini bolalarning tinglash va ko'rsatmalarga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirsa, o'zbeklarning "Oq terakmi, ko'k terak" o'yini jamoaviy harakat, ritm va musiqani his qilish qobiliyatini shakllantiradi. Har ikki turdagi o'yinlar ham bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning o'rganish jarayoniga qiziqishini oshiradi.

Ingliz va o'zbek milliy o'yinlarini ta'lim jarayonida integratsiyalash bolalarning til o'rganishini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi. O'yinlar orqali yangi so'zlar va iboralarni o'rgatish, grammatik konstruksiyalarni amaliyotda qo'llash va nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Masalan, "Qo'g'irchoq" o'zbek o'yinini ingliz tilidagi buyruqlar bilan o'ynash ("Stand up", "Sit down", "Turn around") bolalarning lug'at boyligini oshiradi va buyruq fe'llarini o'zlashtirishga yordam beradi. Xuddi shunday, inglizlarning "What's the time, Mr. Wolf?" o'yinini o'zbek tilidagi savol-javoblar bilan boyitish mumkin.

Bundan tashqari, o'yinlar orqali bolalarda madaniyatlararo tushunchani shakllantirish mumkin. Turli madaniyatlarga oid o'yinlarni o'ynash orqali bolalar boshqa xalqlarining urf-odatlarini, qadriyatlari va turmush tarzi bilan tanishadilar. Bu esa ularda empatiya, tolerantlik va boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarash tuyg'ularini rivojlantiradi [7].

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida ingliz va o'zbek bolalar o'yinlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash orqali bolalarni ham global dunyo talablariga javob beradigan, ham o'z milliy ildizlaridan baxra oladigan barkamol shaxs etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu esa pedagogik jarayonni optimallashtirish va uning samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Banks, J. A., & Banks, C. A. M. (2010). *Multicultural education: Issues and perspectives*. John Wiley & Sons.
2. Bruner, J. S. (1983). *Child's talk: Learning to use language*. New York: W. W. Norton & Company.
3. Davlatova, K. (2005). *Bolalar folklori*. Toshkent: Fan.
4. Frost, J. L., Wortham, S. C., & Reifel, S. (2012). *Play and child development*. Upper Saddle River, NJ: Pearson Education.
5. Gomme, A. B. (2016). *The traditional games of England, Scotland, and Ireland*. Dover Publications.
6. Pellegrini, A. D. (2009). *The role of play in human development*. Oxford: Oxford University Press.
7. Piaget, J. (1962). *Play, dreams and imitation in childhood*.¹ New York: W. W. Norton & Company.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA LOYIHALASHDAN FOYDALANISH

*Haydarqulova Mahliyo Zafarovna
Buxoro davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida loyihalar va loyihalashdan foydalanishning ahamiyati, afzalliklari va foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan. Mazkur metod orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va jamoada ishlash malakasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: loyiha, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur, mustaqil ish, maktab darsliklari, jamoada ishlash, loyihalash metodi,

Boshlangʻich sinflarga taʼlim berish jarayonida yangi metod va yondoshuvlar oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasini oshirish, ularni faol va mustaqil fikrlashga oʻrgatish uchun muhim ahamiyatga ega. Shunday yondoshuvlarning biri - loyihalarga asoslangan taʼlim. Loyihalar yordamida oʻquvchilarga nafaqat nazariy bilimlar beriladi, balki ularni real hayotdagi muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga oʻrgatish mumkin. Boshlangʻich sinfdagi oʻquvchilarga loyihalar orqali taʼlim berish, ularda darslarga qiziqishni oshirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Loyihalash – biror mahsulot yoki inshootni yaratishga doir hisob-kitoblar, chizmalar va raqamlardan iborat hujjatlar jamlanmasi. Loyihalash – bu gʻoyalar orqali vujudga keladigan muammolar yechimi jamlanmasi, uni hal qilish vositasi hamda olingan natijalarni amalda qoʻllash jarayoni. Loyihalash – bu muayyan vaqt oraligʻida maʼlum bir izchillikda kechadigan, noyob natijaga olib keladigan hodisa, jarayondir. Loyihalash atamasining keng va tor maʼnolarini farqlash maqsadga muvofiq. Hozirgi sharoitda jamiyatda loyihalash asosida ish olib bormaydigan faoliyatning biror sohasi yoʻq. Ayniqsa, taʼlim jarayonida loyihalash usulidan foydalanish, oʻsib kelayotgan yosh avlodga loyihalash koʻnikmalarini singdirish murakkab, lekin loyihalash mamlakat va jamiyat manfaatlariga bevosita taʼsir koʻrsatadigan jarayon hisoblanadi. U har ikkala taʼlim subyektlaridan iroda, izchillik, ulkan safarbarlik, fidoiylik, eng asosiysi, jiddiy intilish va motivatsiyani talab qiladi. Manbalarga koʻra, loyihalash usuli XIX asrning 2-yarmida AQSHda paydo boʻlgan, uning asoschisi amerikalik pedagog va psixolog Jon Dyui hisoblanadi. Taʼlim jarayonini loyihalashni pedagogik voqelikni oʻzgartirish uchun qiymatga yoʻnaltirilgan, chuqur motivatsiyalangan, yuqori darajada tashkil etilgan, maqsadli kasbiy faoliyat sifatida qaragan.

Loyihalash predmeti va mazmuniga koʻra: bir fan sohasini oʻz ichiga olgan loyihalash hamda fanlararo mashgʻulotlarni tizimli loyihalash tadqiqotlarga oid loyihalashga ajratiladi. Shuningdek, loyihalash xarakteriga koʻra: aniq natija olishga moʻljallangan loyihalash, koʻp turdagi natijalarni qoʻlga kiritishga qaratilgan loyihalash; unda ishtirok etadigan qatnashchilar soniga koʻra: yakka, juftlikda, kichik guruhlarda ishlashga moʻljallangan loyihalashga boʻlinadi. Bundan tashqari, koʻlamiga koʻra: bir sinf, butun maktab, shahar yoki tuman, viloyat, mamlakat, dunyo miqyosida hal etiladigan loyihalashga, yana muddatiga koʻra: qisqa muddatga moʻljallangan loyihalash, uzoq muddatga moʻljallangan loyihalashga ajratiladi. Loyihalashning shakli, turidan qatʼiy nazar ular muayyan didaktik maqsadlarga yoʻnaltirilgan boʻlishi, auditoriyaning darajasi inobatga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihalash kompetentligi taʼlim ishtirokchilaridan oʻzaro hamkorlik faoliyatini, masʼuliyatni talab qiladi. Masʼuliyat, hamkorlik esa oʻz navbatida, talabani faollik, mustaqil fikrlash, ijod va izlanish, bilishga boʻlgan doimiy motivatsiyasini taʼminlash hamda pozitiv muloqotga oʻrgatadi.

Boʻlajak boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarini pedagogik loyihalash kompetentligini rivojlantirish jarayoni fanlararo tizimli yondashuvni qoʻllashni taqozo etadi, chunki har qanday pedagogik vaziyatda ijodkorlikning yetishmasligi ijodiy-kasbiy faoliyatda boʻshliqlar paydo qiladi. Shuning uchun ham pedagogik jarayonda taʼlim muassasalarida boʻlajak boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilarini tayyorlash toʻlaqonli tarzda tashkil etilib, turli vositalar va metodlarni qoʻllash asosida loyihalashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Taʼlim jarayoni boʻyicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: darsni loyihalash va uni amalga oshirish. Boshlangʻich taʼlim yoʻnalishi talabalarining oʻquv-tarbiya jarayonida loyihalash koʻnikmalarini rivojlantirish jarayonida muammolarni aniqlash, maqsadlarni toʻgʻri belgilash, rejalashtirish, amalga oshirishga imkon beradi. Muammoni aniqlash bosqichida talabalar mutaxassislik fanlarini oʻqitish jarayonida, har bir fandagi qarama-qarshiliklar va muammolar nuqtayi nazaridan tahlil qilishda qiyinchiliklar mavjud va bu qiyinchiliklar tahlil, taqqoslash va sintezning yetarlicha rivojlangan aqliy operatsiyalari bilan bogʻliq. Bu maʼlum darajada hozirgi yoshlarning maʼlumotni tez izlashga, tayyor javob topishga odatlanganligi bilan bogʻliqdir. Bu esa muammoning yechimini loyihalash jarayonida muammoli vaziyatni tavsiflash va tahlil qilish, muammoni tahrirlash boʻyicha

topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi va talabaning yaqin o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish asosida amalga oshiriladi. Loyihalash faoliyatining ushbu bosqichida mutaxassislik fanlaridan ayrim mavzular loyihalash asosida ishlab chiqildi va mavzularga mos metodlar qo'llanildi.

Loyihalar orqali o'quvchilar ijodiy fikrlashga o'rgatiladi. o'quvchilar o'zlari tanlagan yoki o'qituvchi tomonidan berilgan mavzu bo'yicha loyiha yaratishda yangi g'oyalarni ishlab chiqadilar. Bu jarayon o'quvchilarni muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topishga undaydi. Masalan, o'quvchilar ekologiya mavzusida loyiha ishlab chiqishlari mumkin, bunda ular o'zlarining tabiiy resurslarimizni qanday himoya qilishni o'rganadilar va boshqalar bilan bu haqda fikr almashadilar. Bundan tashqari loyihalar ko'pincha guruhlarda amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarga jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular bir-birlariga yordam berish, fikr almashish va mas'uliyatni bo'lishish orqali samarali ish olib borishadi.

Loyihalar o'quvchilarga o'z bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'zini - o'zi o'qish va o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. o'quvchilar turli manbalarni o'rganish, muammo yuzasidan turli fikrlarni tahlil qilish va o'z fikrlarini o'zgalalar bilan baham ko'rish orqali mustaqil bilim olishadi.

Boshlang'ich sinflarda loyihalardan foydalanish ta'lim jarayonini interaktiv, qiziqarli va samarali qilishning eng yaxshi yo'llaridan biridir. Bu metod orqali o'quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, mustaqil qarorlar qabul qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantirish mumkin. Loyihalar o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son qarori.
2. Husenova A.Sh. "Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarini integratsiyalashtirishda o'qituvchi faoliyatini loyihalashtirish metodikasi" (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro 2023
3. Navro'zov I.N. "Loyihaviy ta'limning asosiy o'ziga xos maqsadi va samaradorligi" "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" (2021-yil N:6)
4. Haydarqulova M.Z. "Ta'lim mazmunini loyihalashning ahamiyati" "PEDAGOGIK MAKORAT" ilmiy-nazariy va uslubiy jurnali. 2024 yil, 11-son
5. Haydarqulova M.Z. "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'lim mazmunini loyihalashga tayyorlash" Ta'lim va innovatsiyalar jurnali N:10 2024

ONA TILI TA'LIMIDA BILUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna

Buxoro davlat universiteti

Pedagogika kafedrasida tayanch doktoranti

Annotatsiya: maqolada Ona tili ta'limida biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: biluv, topshiriq, kreativ, boshlang'ich sinf, ona tili, dars, o'quvchilar, jamiyat, faoliyat, samarali, o'rganish bilimi, darslik, uslubiy, ijodiy, ifodali, ta'lim, tadqiqot, ifodali, grammatik, ijodiy

Bilish keng ma'noda ijtimoiy- tarixiy amaliyotning rivojlanishiga bog'liq holda ongda real borliqni aks ettirish va qayta tiklash jarayonidir. Bola tabiat, jamiyat va ong hodisalarini maktab ta'limi sharoitida o'rganadi, bilib oladi. Xo'p, shunday ekan, ta'lim sharoitida bolalarning bilishi katta kishilarning bilishiga aynan o'xshashmi yoki ularning o'zaro farqlari ham mavjudmi? Bu farqni nimadan izlash zarur? Bilish jarayonida katta tajribaga ega olim ham, o'quv predmetlarini o'zlashtirish jarayonida fan asoslarini bilib olayotgan bola ham subyekt fikrsiyasini o'taydi.

LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYANI TIBBIYOT YO'NALISHIDA O'QITISH METODLARI VA USULLARI.....	307
<i>Radjabova Azima Temurovna</i>	<i>307</i>
МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ УСТНОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ВАРИАТИВНОГО ПОДХОДА (НА ПРИМЕРЕ ШКОЛ С КАРАКАЛПАКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ)	309
<i>Балтабаева Бибиноз Моятдиновна.....</i>	<i>309</i>
O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV-BILUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLARI	311
<i>Baqoyeva Muborak To'lg'in qizi</i>	<i>311</i>
BASIC PROBLEMS OF TRANSLATION.....	313
<i>Nilufar Zokirova Hamidovna</i>	<i>313</i>
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY MASALALAR ISHLASH METODIKASI.....	314
<i>Boltayeva Sitara Fayzulloyevna</i>	<i>314</i>
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA KREATIVLIKNING PAYDO BO'LISHI.....	317
<i>Allashova N.U</i>	<i>317</i>
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANING AHAMIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	318
<i>Boymurodova Sadoqat Istam qizi.....</i>	<i>318</i>
БОЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРЛАШДА САВОДХОНЛИККА ЎРГАТИШ – ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА.	321
<i>Ҳақимов Аббосхон Орибжон ўғли.....</i>	<i>321</i>
МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARNI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTELEKTUAL SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH	324
<i>Abdullayeva Dilnozaxon Saydullo qizi</i>	<i>324</i>
YOSH SPORTCHILARNI YENGIL ATLETIKA SPORT TURIGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	326
<i>Elquliyeva Feruza Dilmurod qizi.</i>	<i>326</i>
BOLALAR TA'LIMIDA INGLIZ VA O'ZBEK O'YINLARI INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI	328
<i>Xusanova Gulasal Shuhratjon qizi</i>	<i>328</i>
BOSHLANG'ICH SINFLARDA LOYIHALASHDAN FOYDALANISH	329
<i>Haydarqulova Mahliyo Zafarovna</i>	<i>329</i>
ONA TILI TA'LIMIDA BILUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....	331
<i>Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna</i>	<i>331</i>
INGLIZ TILINI O'QITISH VA O'RGANISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	334
<i>Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna.....</i>	<i>334</i>
МАКТАБГАЧА YOSHIDAGI BOLALARDA QURISH-YASASH ORQALI KREATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ISTIQBOLI	336
<i>Isomova Farog'at Tojiddin qizi.....</i>	<i>336</i>
MILLIY O'YINLAR YORDAMIDA INTERAKTIV TA'LIM METODLAR YARATISH (QORAQALPOQ MILLIY O'YINLARINI MISOLIDA).....	338
<i>Jaksimuratov Azamat Bekmurod uli.....</i>	<i>338</i>
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI MA'NAVIY TARBIYALASHDA AXBOROT VOSITALARINING TA'SIRI	341
<i>Jonuzoqova Pokiza Hakimovna.....</i>	<i>341</i>
<i>Ilmiy rahbar: Turdiyeva Mohira Juraqulovna,</i>	<i>341</i>
BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA NUTQUIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	342
<i>Karimova Kamola Komil qizi.....</i>	<i>342</i>
PROBLEMS IN THE TRANSLATION OF LEXICAL UNITS	343
<i>Kochkorova Zulfizar Abdukhamid kizi</i>	<i>343</i>
<i>To'lg'inova Ziyora.....</i>	<i>343</i>